



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOG‘LIQNI SAQLASH VAZIRINING
BUYRUG‘I**

20 23 yil “06-” dekabr

№ 310

Toshkent sh.

**O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligining
bosh mutaxassis, konsultantlar (CPD-koordinator) faoliyatini tashkil
etish to‘g‘risida**

Aholiga ko‘rsatilayotgan birlamchi tibbiy sanitariya va ixtisoslashtirilgan tibbiy xizmat ko‘rsatishni to‘g‘ri va samarali tashkil etish, sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligining tashkiliy-uslubiy tizimini yanada takomillashtirish, sog‘liqni saqlash tizimi yo‘nalishlarini bugungi kun talabiga mos ravishda rivojlantirish, ularning tizimli tahlili, maqsadlari, vazifalari, shuningdek, mavjud muammolar yechimini ishlab chiqishda sohaning yetuk mutaxassislarini jalb qilish maqsadida **buyuraman:**

1. Quyidagilar:

O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligining bosh mutaxassis, konsultantlar (CPD-koordinator) faoliyatini tashkil etish to‘g‘risidagi nizom 1-ilovaga muvofiq;

Sog‘liqni saqlash vazirligining bosh mutaxassis, konsultantlar (CPD-koordinator) ro‘yxati 2-ilovaga muvofiq;

Sog‘liqni saqlash vazirligining bosh mutaxassis, konsultantlar (CPD-koordinator) ning uzluksiz kasbiy ta‘limni rivojlantirish tizimini muvofiqlashtirish bo‘yicha hisobot shakli 3-ilovaga muvofiq;

Sog‘liqni saqlash vazirligining bosh mutaxassis, konsultantlar (CPD-koordinator) ning ish faoliyatiga oid ma‘lumotlar bo‘yicha hisobot shakli 4-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. Belgilansinki, Sog‘liqni saqlash vazirligining bosh mutaxassis, konsultantlari bir vaqtning o‘zida uzluksiz kasbiy ta‘limni rivojlantirish tizimini muvofiqlashtirish bo‘yicha – CPD-koordinator hisoblanadi.

3. Qoraqalpog‘iston Respublikasi sog‘liqni saqlash vaziri, Toshkent shahar va viloyatlar sog‘liqni saqlash boshqarmalari boshliqlari bir oy muddatda 2-ilovaga muvofiq yo‘nalishlar yuzasidan o‘z hududlari bo‘yicha bosh mutaxassis, konsultantlar (CPD-koordinator) faoliyatini tahlil qilgan holda, ularning ro‘yxatini qayta ko‘rib chiqib, tasdiqlasin.

4. Tibbiyot oliy o‘quv yurtlari rektorlari, Respublika ixtisoslashtirilgan ilmiy-amaliy tibbiyot markazlari, ilmiy-tekshirish institutlari direktorlari, davolash-profilaktika muassasalari rahbarlari:

Sog‘liqni saqlash vazirligining bosh mutaxassis, konsultantlar (CPD-koordinatorlar) ning asosiy xizmat joylarida ularga vazirlikda tasdiqlangan jadval asosida ishlashlari uchun zarur sharoit yaratib bersin;

samarali mehnatlari, maqsadli indikatorlarning samaradorligini oshirishdagi hissasi hamda sog‘liqni saqlash tizimini rivojlantirish va takomillashtirishga qo‘shgan hissalarini inobatga olib, asosiy xizmat joylaridagi budjet yoki budjetdan tashqari mablag‘lar hisobidan Sog‘liqni saqlash vazirligining bosh mutaxassislariga mehnatga haq to‘lashning eng kam miqdorining 10 barobarigacha mukofotlanishi inobatga olinsin.

5. Bosh mutaxassis, konsultantlar (CPD-koordinatorlar) ish rejasiga ko‘ra, o‘z faoliyatlari samaradorligi hamda amalga oshirgan ishlari yuzasidan choraklik, yarim yillik va yillik hisobotlarini davolash ishlari bo‘yicha Tibbiy yordamni tashkillashtirish departamenti boshlig‘iga hamda Onalik va bolalikni muhofaza qilish boshqarmasi boshlig‘iga taqdim etilishini ta‘minlasin.

6. Mazkur buyruq qabul qilinishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasi sog‘liqni saqlash vazirining 2020-yil 10-dekabrda 332-sonli, 2021-yil 24-fevralda 37-sonli va 2021-yil 2-iyulda 159-sonli buyruqlari o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.

7. Mazkur buyruq ijrosi nazoratini o‘z zimmasida qoldiraman.

Vazir



A. Inoyatov

**O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligining
bosh mutaxassis, konsultantlar (CPD-koordinator) faoliyatini tashkil
etish to'g'risida
Nizom**

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Ushbu Nizom O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligining bosh mutaxassis, konsultantlar (CPD-koordinator) faoliyatini tashkil etish tartibini belgilaydi.

2. Sog'liqni saqlash tizimining asosiy, keng qamrovli, tizimli rivojlanishida muhim ahamiyatga ega bo'lgan yo'nalishlarda hamda ijtimoiy ahamiyatga molik kasalliklar bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligining shtatdan tashqari bosh mutaxassis, konsultantlar (CPD-koordinator) (keyingi o'rinlarda – bosh mutaxassis, konsultantlar (CPD-koordinator)) tayinlanadi.

3. Bosh mutaxassis, konsultantlar (CPD-koordinator) O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirining buyrug'i bilan o'z vazifasiga tayinlanadi va ozod etiladi.

4. Bosh mutaxassis, konsultantlar (CPD-koordinator) vazifasiga respublikadagi soha bo'yicha muassasalarida ishlovchi yuqori malakali, ushbu soha bo'yicha katta tajribaga va mavqega ega yetakchi olim va mutaxassislar orasidan tanlab olinadi.

5. Bosh mutaxassis, konsultantlar (CPD-koordinator) vazirlik va Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi qo'mitasining tegishli bo'linmalari bilan hamkorlikda ishlaydi.

6. Bosh mutaxassis, konsultantlar (CPD-koordinator) o'z sohasi bo'yicha respublika aholisiga ko'rsatilayotgan tibbiy yordam sifatini oshirish, tibbiyotga yangi davolash-diagnostika uslublari va zamonaviy fan-texnika yutuqlarini tatbiq etish, sohaviy kadrlar bilim va salohiyatini oshirish hamda joylarda tegishli tibbiy xizmat yo'nalishi bo'yicha holatni muhokama qilish maqsadida Sog'liqni saqlash vazirligi rahbariyati ruxsati bilan hududlarga xizmat safariga boradi, Qoraqalpog'iston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi, Toshkent shahar va viloyatlar sog'liqni saqlash boshqarmalari va mazkur hududlardagi bosh mutaxassis, konsultantlar bilan birgalikda jalb etgan holda mavjud muammo va ularni bartaraf etish choralari bo'yicha takliflar ishlab chiqadi.

Bosh mutaxassis, konsultantlar (CPD-koordinator) o'zining yo'nalishida faoliyat yuritayotgan davrda uzluksiz kasbiy ta'limni rivojlantirish tizimini muvofiqlashtirishga mas'ul hisoblanadi.

Xizmat safari davomida ilmiy-amaliy va tashkiliy-uslubiy masalalar ham muhokama etilishi mumkin.

2-bob. Bosh mutaxassis, konsultantlar (CPD-koordinator) ning asosiy vazifa va vakolatlari

7. Bosh mutaxassis, konsultantlar (CPD-koordinator) ning o'z yo'nalishlari bo'yicha vazifa va vakolatlari:

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, Hukumat va Sog'liqni saqlash vazirligining sohaga oid ustuvor yo'nalishlar bo'yicha me'yoriy-huquqiy hujjatlari, kompleks chora-tadbirlar dasturlarini ishlab chiqishda ishtirok etish;

kasalliklarning oldini olish, ularni erta aniqlash, bemorlarga ambulatoriya-poliklinika va statsionar sharoitlarida ko'rsatilayotgan malakali va ixtisoslashgan tibbiy xizmat sifati va unumdorligini doimiy oshirishga yordam berish;

aholi salomatligini himoya qilish va sog'liqni saqlash tizimini takomillashtirishning amaldagi talablaridan kelib chiqqan holda, tizim rivojlanishida ishtirok etish;

davolash-profilaktika muassasalari faoliyatiga yangi zamonaviy diagnostika va davolash standartlarini (usullarini) tatbiq etish, sog'liqni saqlash tizimining mavjud moddiy resurslaridan unumli foydalanish bo'yicha takliflar ishlab chiqib, vazirlikka kiritish;

o'z yo'nalishi bo'yicha tibbiyot muassasalarining kadrlar bilan ta'minlanganligi, ehtiyoji hamda ularning bilim va salohiyatini o'rganish, sohaviy kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirishga oid choralar ko'rishda faol ishtirok etish;

atrof-muhitni sog'lomlashtirish, ovqatlanishni, mehnat, turmush, dam olish, ta'lim tarbiya berish sharoitlarini yaxshilash, epidemiya va radiatsiya vaziyati, atrof muhitning holati hamda ularning odamlar salomatligiga ta'siri haqida, shuningdek sanitariya va epidemiologik osoyishtalik sohasida, shuningdek maxsus o'tkaziladigan boshqa ekspertizalar yuzasidan asosli takliflar ishlab chiqish;

hududlarni karantin va o'ta xavfli, yuqumli, parazitlar kasalliklarning olib kirilishi, olib o'tilishi va tarqalishidan sanitariya jihatidan himoya qilish bo'yicha sanitariya-gigiyenik va epidemiyaga qarshi chora-tadbirlarni ishlab chiqishda asosiy mas'ul mutaxassis sifatida ishtirok etish;

aholiga profilaktik emlashlar o'tkazish sifati va samaradorligini, o'z vaqtida qamrab olish jarayonida xavf-xatarni tahlil qilish va ilmiy asoslangan yondashuvlarni inobatga olgan holda, yuqumli kasalliklarning immunologik profilaktikasi sohasida chora-tadbirlarni amalga oshirish;

yuqumli va parazitlar kasalliklar o'choqlarida surishtiruv ishlarini tashkil etish hamda sanitariya-gigiyenaga oid va epidemiyaga qarshi chora-tadbirlar amalga oshirilishi ustidan nazorat qilish;

yuqumli va parazitlar kasalliklar yuzaga kelishining oldini olishga va ularni kamaytirishga, ular yuqish yo'llari va omillariga ta'sir ko'rsatishga va texnogen tushdagi favqulodda vaziyatlar bilan bog'liq bo'lgan epidemiologik asoratlar oqibatlarini tugatishga qaratilgan profilaktik va o'choqli epidemiyaga qarshi tadbirlar o'tkazilishini ustidan nazorat qilish;

sanitariya-epidemiologiya sohasida istiqbolli yo'nalishlarni belgilash va dolzarb masalalar bo'yicha ilmiy-tadqiqot ishlari olib borishda ishtirok etish;

yuqumli, parazitlar va ommaviy yuqumli bo'lmagan, zaharlanish va kasbiy kasalliklarning laboratoriya diagnostikasi, davolash va ularga qarshi kurashishning zamonaviy usullarini ishlab chiqish va amaliyotga joriy qilish;

o'z sohasi bo'yicha davolash-profilaktika muassasalari faoliyatini uslubiy nazorat qilishda ishtirok etish, uni yaxshilash bo'yicha vazirlik va hududiy sog'liqni saqlash boshqarmalariga takliflar kiritish va ular ijrosini nazorat qilish hamda mavjud muammolar va ularning yechimi yuzasidan vazirlik rahbariyatiga axborotlar taqdim etish;

sog'liqni saqlash tizimi quyi organlarining tegishli bosh mutaxassis va konsultantlari faoliyatini nazorat qilish, uni takomillashtirish bo'yicha takliflar kiritish;

sog'liqni saqlash tizimining quyi bosqichlari va muassasalarida tegishli soha bo'yicha olinadigan tibbiy-statistik ma'lumotlarni jamlash hamda respublikadagi soha bo'yicha tegishli muassasasi ishtirokida tahlil qilish va shu asosida har yili muntazam tahliliy ma'lumotlar tayyorlash. Ushbu ma'lumotlarda sohada mavjud kamchiliklar, ularning yechimi, shuningdek sohani rivojlantirish va takomillashtirish bo'yicha aniq va asoslangan tavsiyalar berish;

tegishli soha bo'yicha respublikaning barcha hududlarida davolash-profilaktika muassasalariga amaliy va konsultativ yordam ko'rsatish;

Sog'liqni saqlash vazirligi tomonidan tasdiqlangan uslubiy materiallar, ilmiy yangiliklar, yangi davolash va diagnostika usullarini davolash-profilaktika muassasalari faoliyatiga joriy etilishini o'rganish, takliflar ishlab chiqish;

tegishli soha bo'yicha tibbiyot muassasalarining davolash-diagnostika jihozlari, dori vositalari va tibbiy buyum hamda sarflov vositalariga bo'lgan yillik ehtiyojini aniqlash, shakllantirish, shuningdek yillik talabnomalar tuzishda ishtirok etish, tibbiy muassasalar faoliyatida ulardan ratsional foydalanishni o'rganib borish, bu boradagi ishlar yuzasidan taklif tayyorlash;

o'z yo'nalishi bo'yicha davolash-profilaktika muassasalari uchun dori vositalar formulyarlarini tuzish va ularni muntazam ravishda takomillashtirish jarayonini tashkil etish;

texnik topshiriqlar ishlab chiqishda ishtirok etish;

o'z yo'nalishi bo'yicha tegishli sog'liqni saqlash tizimining barcha bo'g'ini muassasalari faoliyati uchun davolash-diagnostika standartlari va bemorlarni davolash protokollarini (klinik protokollarni) tayyorlash va ularni muassasalar faoliyatiga tatbiq etishda mas'ul mutaxassis sifatida ishtirok etish;

aholiga tibbiy yordamni tashkil etish va ko'rsatilayotgan tibbiy xizmat sifati bo'yicha fuqarolardan kelayotgan shikoyatlarni belgilangan tartibda o'rganish, ularni keltirib chiqaruvchi sabablarini aniqlash, kamchiliklarni bartaraf etish bo'yicha takliflar kiritish;

aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish bo'yicha hududiy sog'liqni saqlash organlariga ko'rib chiqilishi shart bo'lgan takliflar kiritish;

sog'liqni saqlash tizimidagi "Uzluksiz kasbiy ta'lim" elektron platformasini tuzish, umumlashtirish, yangilab borish va muvofiqlashtirish;

"Sog'liqni saqlash kadrlarining elektron reestri"da har bir xodimning elektron portfoliosini shakllantirish va yangilab borish;

vazirlik tomonidan tasdiqlangan davlat va nodavlat ta'lim muassasalarining (soha bo'yicha CPD provayderlarining) elektron reestrini yuritish;

sog'liqni saqlash tizimi soha bo'yicha kadrlarining malaka oshirish bilan qamrovi holatini o'rganish va tahlil qilish;

sog'liqni saqlash tizimi kadrlarining malaka oshirish bilan to'liq qamrovini amalga oshirish rejasini tuzish va reja asosida o'qitishni tashkillashtirish.

12. Sog'liqni saqlash tizimida har bir tor mutaxassislik bo'yicha CPD – koordinatorlar ro'yxatini shakllantirish.

Bunda, sohaning yetuk olimlari va/yoki tajribali mutaxassislari qatoridan nufuzli xorijiy tashkilot va olimlar bilan xalqaro hamkorlik olib boradigan, ilmiy-pedagogik sohasida yutuqlarga sazovor, liderlik sifatlariga ega bo'lgan nomzodlar tanlab olinadi.

8. Tor mutaxassislik bo'yicha CPD – koordinatorlarining ishlash mexanizmini quyidagicha belgilanadi:

8.1. Tor mutaxassislik bo'yicha CPD – koordinatorlari quyidagilardan iborat bo'lgan ishchi guruhlarini shakllantiradi.

- kasbiy assotsiatsiyalar (rais);

- kasbiy uyushmalar (rais);

- kasbiy jamiyatlar (rais);

- respublika, viloyat, shahar, tuman miqyosidagi bosh mutaxassis va konsultantlar;

- tibbiyot OTMlari kafedra mudirlari;

- monotematik komissiyalar raislari;

- hududiy ta'lim markazlari mutaxassislari (O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 6-maydagi PQ-4310-sonli qaroriga muvofiq);

- soha olimlari/tajribali yetuk mutaxassisi;
- nodavlat uzluksiz ta'lim tashkilotlari;
- tibbiyot va farmatsevtika xodimlarining malakasini baholash markazi mas'ul xodimi;
- respublika, viloyat, shahar, tuman miqyosida kadrlar boshqarmasi boshliqlari va mas'ul xodimlari.

8.2. Ishchi guruh tor mutaxassislik bo'yicha quyidagilarni amalga oshiradi:

a) sog'liqni saqlash tizimi kadrlarining malaka oshirish bilan qamrovi holatini o'rganish va tahlil qilish;

b) sog'liqni saqlash tizimi kadrlarining malaka oshirish bilan to'liq qamrovini amalga oshirish rejasini tasdiqlash;

v) differensial ta'lim dasturlarini tuzish, bunda quyidagilarni inobatga olish:

- o'qitiladigan xodimning faoliyat ko'rsatadigan davolash muassasaning o'ziga xos xususiyatlariga muvofiq xodimga qo'yiladigan malaka talablar va kompetensiyalar;

- davolash muassasalarining darajasi (tuman, shahar, viloyat, respublika)ga mos ravishda aholiga ko'rsatadigan tibbiy yordam turlari;

- kompetensiyalari (birlamchi bo'g'in, stasionar, ixtisoslashgan markazlar, farmatsevtik muassasalar va h.k.);

- ilg'or xorijiy tajriba asosida tavsiyalar ishlab chiqish, aholi salomatligini muhofaza qilish maqsadida dalillarga asoslangan tibbiyot (Evidence-based Medicine) tamoyillari asosida va tibbiy ta'limning ilg'or xalqaro amaliyotini (Best Evidence Medical Education) joriy etish.

g) tegishli tor mutaxassilik bo'yicha "Sog'liqni saqlash kadrlarining elektron reestri"ni tuzish va yangilab borish (ko'rsatmaga muvofiq);

d) tegishli mutaxassislarni individual kasbiy rivojlantirish yo'nalishiga muvofiq malaka oshirish va qayta tayyorlash dasturlarini tuzish, taqdim etish va o'qish kurslarini tashkil etish;

e) sertifikatlashtirish va qayta sertifikatlashtirish oralig'idagi 5 yil mobaynida o'z mutaxassisligi bo'yicha bo'lgan respublikadagi har bir tibbiyot xodimini har yili o'qitish va kredit ballarni to'plash jarayonini tashkillashtirish hamda hisobotlarni vazirlikka taqdim etish.

3-bob. Bosh mutaxassis, konsultantlar (CPD-koordinator) ning huquq va majburiyatlari

9. Bosh mutaxassis, konsultantlar (CPD-koordinator) quyidagi huquqlarga ega:

- xalqaro ilg'or tajribaga ega tibbiyot markazlari, universitetlari, institutlari, klinikalari bilan hamkorlik aloqalarini o'rnatish;

mahalliy va xorijiy davlatlarda malaka oshirish, trening, seminar, o'quv kurslari va ilmiy anjumanlarda ishtirok etish;

tibbiyot amaliyotiga ilg'or xorijiy davolash-diagnostika usul va uslubiyatlarni joriy etish;

Sog'liqni saqlash vazirligi, Qoraqalpog'iston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi, Toshkent shahar va viloyatlar sog'liqni saqlash boshqarma boshliqlari, sog'liqni saqlash tizimining quyi organlari rahbarlari oldiga quyidagi masalalar bo'yicha takliflar kiritish:

aholiga ko'rsatilayotgan tibbiy xizmat sifatini yaxshilash, dori hamda sarflov vositalari, tibbiy asbob-uskunalar va boshqa moddiy-texnika resurslaridan unumli foydalanish, mavjud muammolar va ularning yechimi yuzasidan axborot kiritish;

barcha bo'g'in tibbiyot muassasalarida profilaktik va skrining tadbirlar samaradorligini, davolash-diagnostika standartlari va klinik bayonnomalarga amal qilinishini o'rganish, mavjud xato va kamchiliklarni amaldagi qonunchilik hujjatlariga muvofiq to'g'rilash, ular yuzasidan rahbariyatga axborot kiritish;

hududiy bosh mutaxassis va konsultantlar faoliyatini tahlil etish natijasida ularni rag'batlantirish yoki jazolash, zarur bo'lgan hollarda egallab turgan lavozimiga loyqligini ko'rib chiqish yuzasidan taklif kiritish;

ixtisoslashtirilgan tibbiyot markazlari, respublika shifoxonalari, ilmiy tadqiqot institutlari va tibbiyot oliy o'quv yurtlari Ilmiy kengashlarida aholiga ko'rsatilayotgan tibbiy xizmat sifatini yaxshilash, sog'liqni saqlash muassasalariga amaliy-uslubiy yordamni tashkil etish bilan bog'liq masalalar muhokamasida ishtirok etish va tegishli takliflar kiritish;

qonunchilik hujjatlariga muvofiq, Qoraqalpog'iston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi, Toshkent shahar va viloyatlar sog'liqni saqlash boshqarmalari, sog'liqni saqlash tizimining quyi organlari xodimlari, tibbiyot muassasalari xodimlarining noqonuniy xatti-harakatlari ustidan shikoyat qilish.

10. Bosh mutaxassis, konsultantlar (CPD-koordinator) qonunchilik hujjatlariga muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo'lishi mumkin.

11. Bosh mutaxassis, konsultantlar (CPD-koordinator) quyidagilarga majbur: o'z faoliyatini amaldagi qonunchilik hujjatlariga muvofiq amalga oshirish;

ko'rsatayotgan xizmatlari sifatini amaldagi normativ-huquqiy hujjatlar talablariga muvofiq bo'lishini ta'minlash;

mazkur buyruq bilan tasdiqlanuvchi hisobot shakllariga muvofiq o'zi tomonidan amalga oshirilgan hisobotlarni belgilangan tartibda va muddatlarda o'zi bo'ysunuvchi rahbariyatga taqdim etish;

hududiy bosh mutaxassis va konsultantlar ishini tahlil qilish, ular faoliyati yuzasidan Qoraqalpog'iston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi va hududiy sog'liqni saqlash boshqarmalari rahbariyatiga ma'lumot kiritish;

o‘z yo‘nalishi bo‘yicha kadrlar siyosatiga oid ma‘lumotlar bazasini shakllantirish, yuritish;

amaldagi qonunchilik hujjatlarida belgilangan ma‘lumotlarni sir saqlash;

favqulodda va alohida holatlarda o‘z xizmatlarini belgilangan ish vaqtdan tashqari vaqtlarda ko‘rsatilishini ta‘minlash;

o‘z yo‘nalishlari bo‘yicha favqulodda hamda shoshilinch holatlarda, shuningdek boshqa alohida holatlarda rahbariyatni belgilangan tartibda tezkor xabardor qilish;

uning nomiga yo‘llangan jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari, takliflari, arizalari va shikoyatlarini qonunchilik hujjatlarida belgilangan muddatlarda ko‘rib chiqib, javob berish.

4-bob. Bosh mutaxassis, konsultantlar (CPD-koordinator) ning ishini tashkil etish

12. Bosh mutaxassis, konsultantlar (CPD-koordinator) o‘z faoliyatlarida O‘zbekiston Respublikasi “Fuqarolarning sog‘lig‘ini saqlash to‘g‘risida”gi Qonuniga, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qaror, farmon va farmoyishlari hamda Sog‘liqni saqlash vazirligining me‘yoriy hujjatlariga asoslanadilar.

13. Bosh mutaxassis, konsultantlar (CPD-koordinator) ish faoliyati vazirlikning boshqarmalari, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi, Toshkent shahar va viloyatlar sog‘liqni saqlash boshqarmalari, soha bo‘yicha ixtisoslashtirilgan ilmiy-amaliy tibbiyot markazlari, ilmiy-tekshirish institutlari va boshqa davolash-profilaktika muassasalari bilan hamkorlikda amalga oshiradilar.




14. Bosh mutaxassis, konsultantlar (CPD-koordinator) respublika aholisiga ko‘rsatilayotgan tegishli soha bo‘yicha tibbiy xizmat haqidagi choraklik, yarim yillik va yillik tahliliy ma‘lumotlarni rejali ravishda hisobot yilidan keyingi yilning 1-apreliga qadar va zarurat bo‘lganda tezkor ma‘lumot sifatida tegishli boshqarmaga taqdim etadilar.

5-bob. Yakuniy qoidalar

15. Mazkur nizom talablari buzilishida aybdor bo‘lgan shaxslar qonun hujjatlariga muvofiq javobgar bo‘ladi.






Sog'liqni saqlash vazirining
2023-yil 06 12 dagi
310 -sonli buyrug'iga
2-ilova

O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligining bosh mutaxassis, konsultant (CPD-kordinator) lar
RO'YXATI






T/r	T/r	Yo'nalish	FISH, tug'ilgan yili	Rasmi	Asosiy ish joyi, lavozimi	Dastlabki tayinlangan yili	Vazirlikning mas'ul bo'lgan bo'linmasi
1	1.1	Reproduktologiya xizmati bo'yicha bosh mutaxassis	Zufarova Shaxnoza Alimjanovna 13.02.1970-y.		Respublika aholi reproduktiv salomatlik markazi direktori, t.f.d., dotsent	2020-yil	Onalik va bolalikni muhofaza qilish boshqarmasi
	1.2	Reproduktologiya xizmati bo'yicha konsultant	Karimova Feruza Djavdatovna 08.08.1971-y.		Tibbiyot xodimlarining kasbiy malakasini rivojlantirish markazi "2-Akusherlik va ginekologiya" kafedrasi mudiri	2023-yil	
2	2.1	Bolalar anesteziologiya va reanimatologiya xizmati bo'yicha bosh mutaxassis	Satvaldiyeva Elmira Abdusamatovna 09.02.1961-y.		Tibbiyot xodimlarining kasbiy malakasini rivojlantirish markazi "Bolalar anesteziologiya va reanimatsiya" kafedrasi mudiri, t.f.d., professor	2020-yil	

	2.2	Bolalar anesteziologiya va reanimatologiya xizmati bo'yicha konsultant	Alimov Axror Abdurasulovich 04.03.1988-y.		Bolalar milliy tibbiyot markazi reanimatsiya bo'limi mudiri	2023-yil	Onalik va bolalikni muhofaza qilish boshqarmasi
3	3.1	Bolalar allergologiya xizmati bo'yicha bosh mutaxassis	Yuldashov Ilxom Ro'ziyevich 22.10.1961-y.		Toshkent Pediatriya tibbiyot institutining allergologiya, klinik immunologiya, mikrobiologiya kafedrasini mudiri, t.f.d, professor	2004-yil	
	3.2	Bolalar allergologiya xizmati bo'yicha konsultant	Abdullayev Nurboy Chunayevich 10.10.1963-y.		Toshkent Pediatriya tibbiyot institutining allergologiya, klinik immunologiya, mikrobiologiya kafedrasini dotsenti, t.f.d.	2006-yil	
4	4.1	Anesteziologiya va reanimatologiya xizmati bo'yicha bosh mutaxassis	Ibragimov Ne'matjon Komiljonovich 05.12.1964-y.		Toshkent tibbiyot akademiyasining ko'p tarmoqli klinikasi 1-jonlantirish jarrohlik bo'limi mudiri, t.f.n. dotsent	2023-yil	Tibbiy yordamni tashkillashtirish departamenti
	4.2	Anesteziologiya va reanimatologiya xizmati bo'yicha konsultant	Sharipova Visolat Xamzayevna 01.07.1978-y.		Respublika shoshilinch tibbiy yordam ilmiy markazi anesteziologiya va reanimatsiya bo'limi rahbari, t.f.d.	2020-yil	


5	5.1	Allergologiya xizmati bo'yicha bosh mutaxassis	Razikova Ilmira Sagdullayevna 30.04.1964-y.		Respublika ixtisoslashtirilgan allergologiya ilmiy markazi direktori, t.f.d., professor	2018-yil	Tibbiy yordamni tashkillashtirish departamenti
	5.2	Allergologiya xizmati bo'yicha konsultant	Qo'ziyev G'ayrat 24.06.1980-y.		Respublika ilmiy ixtisoslashtirilgan allergologiya markazi davolash ishlari bo'yicha direktor o'rinbosari	2023-yil	
6	6.1	Bolalar ambulatoriya-poliklinika xizmati bo'yicha bosh mutaxassis	Shomansurova Elmira Amanullayevna 04.07.1958-y.		Toshkent Pediatriya tibbiyot institutining ambulator poliklinika kafedrasini mudiri, t.f.d., professor	2003-yil	Onalik va bolalikni muhofaza qilish boshqarmasi
	6.2	Bolalar ambulatoriya-poliklinika xizmati bo'yicha konsultant	Fayziyev Obid Nishanovich 05.04.1965-y.		Toshkent Pediatriya tibbiyot institutining 1-oilaviy shifokorlik kafedrasini dotsenti	2023-yil	
7	7.1	Bolalar gematologiyasi va onkologiyasi xizmati bo'yicha bosh mutaxassis	Polatova Djamila Shagayratovna 28.07.1975-y.		Bolalar gematologiyasi, onkologiyasi va klinik immunologiyasi ilmiy-amaliy tibbiyot markazi direktori	2023-yil	

	7.2	Bolalar gematologiyasi va onkologiyasi xizmati bo'yicha konsultant	Ashurova Lola Valiyevna 15.03.1980-y.		Bolalar gematologiyasi, onkologiyasi va klinik immunologiyasi ilmiy-amaliy tibbiyot markazi direktorining davolash ishlari bo'yicha o'rinbosari v.b.	2023-yil	Onalik va bolalikni muhofaza qilish boshqarmasi
	7.3	Bolalar onkologiyasi xizmati bo'yicha konsultant	Mustafayev Tojiddin Qurbonovich 08.10.1971-y.		Respublika bolalar gematologiyasi, onkologiyasi va klinik immunologiyasi markazi bolalar bo'limi rahbari. t.f.n.	2007-yil	
8	8.1	Onkologiya xizmati bo'yicha bosh mutaxassis	Tillyashayxov Mirzag'olib Nigmatovich 05.05.1958-y.		Respublika ixtisoslashtirilgan onkologiya va radiologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazining direktori, t.f.d, professor	2020-yil	Tibbiy yordamni tashkillashtirish departamenti
	8.2	Klinik onkologiya xizmati bo'yicha konsultant	Islamov Xurshid Jamshidovich 16.07.1979-y.		Respublika ixtisoslashtirilgan onkologiya va radiologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazining koloproktologiya bo'limi mudiri, t.f.n.	2020-yil	
	8.3	Ximioterapiya xizmati bo'yicha konsultant	Kamishov Sergey Viktorovich 19.10.1973-y.		Respublika ixtisoslashtirilgan onkologiya va radiologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazining ximioterapiya bo'limi ilmiy rahbari, t.f.d.	2020-yil	




9	9.1	Nurli diagnostika xizmati bo'yicha bosh mutaxassis	Ososkov Aleksandr Vladimirovich 25.06.1962-y.		Respublika ixtisoslashtirilgan onkologiya va radiologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi tarkibidagi Respublika rentgen-radiologiya markazi mudiri	2023-yil	Tibbiy yordamni tashkillashtirish departamenti
	9.2	Rentgenologiya xizmati bo'yicha konsultant	Faxridinova Alfiya Raufovna 14.02.1967-y.		Respublika ixtisoslashtirilgan ftiziatriya va pulmonologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazining klinik rentgenologiya bo'limi, t.f.n.	2017-yil	
	9.3	Onkologik radiologiya xizmati bo'yicha konsultant	Ibragimov Shavkat Narzikulovich 15.03.1967-y.		Respublika ixtisoslashtirilgan onkologiya va radiologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazining radiologiya bo'limi rahbari, t.f.d.	2020-yil	
	9.4	Onkomorfologiya xizmati bo'yicha konsultant	Nishonov Doniyor Anorboyevich 05.06.1972-y.		Respublika ixtisoslashtirilgan onkologiya va radiologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazining patomorfologiya bo'limi mudiri, t.f.n.	2020-yil	
10	10.1	Gematologiya xizmati bo'yicha bosh mutaxassis	Maxamadaliyeva Gulchexra Zuxridinovna 13.02.1979-y.		Respublika ixtisoslashtirilgan gematologiya va qon quyish ilmiy-amaliy tibbiyot markazi shifokor-gematologi, t.f.n.	2023-yil	

	10.2	Gematologiya xizmati bo'yicha konsultant	Achilova Ozoda Umarkulovna 07.03.1982-y.		Respublika ixtisoslashtirilgan gematologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi shifokor-gematologi, t.f.n.	2023-yil	Tibbiy yordamni tashkillashtirish departamenti
11	11.1	Bolalar gastroenterologiya xizmati bo'yicha bosh mutaxassis	Umarnazarova Zulxumor Ernazarovna 27.02.1959-y.		Respublika ixtisoslashtirilgan pediatriya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi gastroenterologiya bo'limi, t.f.n., katta ilmiy xodimi	2020-yil	Onalik va bolalikni muhofaza qilish boshqarmasi
	11.2	Gastroenterologiya xizmati bo'yicha konsultant	Karimov Mirvosit Mirvosikovich 05.07.1961-y.		Respublika ixtisoslashtirilgan terapiya va tibbiy reabilitatsiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazining gastroenterologiya bo'limi rahbari, t.f.d., professor	2003-yil	Tibbiy yordamni tashkillashtirish departamenti
12	12.1	Bolalar dietologiya xizmati bo'yicha bosh mutaxassis	Axmedova Nilufar Rasulovna 27.02.1974-y.		Toshkent Pediatriya tibbiyot institutining gospital pediatriya kafedrasida assistenti, t.f.n.	2011-yil	Onalik va bolalikni muhofaza qilish boshqarmasi
	12.2	Bolalar dietologiya xizmati bo'yicha konsultant	Ayxadjayeva Muborak Baxramxodjayevna 10.12.1979-y.		Respublika ixtisoslashtirilgan pediatriya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi gastroentolog-dietolog	2023-yil	






	12.3	Nutritsiologiya xizmati bo'yicha konsultant	Shayxova Guli Islamovna 27.10.1951-y.		Toshkent tibbiyot akademiyasining O'smirlar gigiyenasi kafedrasini professori, t.f.d.	2020-y.	Onalik va bolalikni muhofaza qilish boshqarmasi
13	13.1	Akusherlik-ginekologiya xizmati bo'yicha bosh mutaxassis	Abdullayeva Lagiya Mirzatillayevna 03.06.1969-y.		Toshkent tibbiyot akademiyasi "Akusherlik va ginekologiya kafedrasini" t.f.d., dotsent	2021-yil	
	13.2	Akusherlik-ginekologiya xizmati bo'yicha konsultant	Abduraimov Timur Fayzullayevich 29.05.1979-y.		Respublika ixtisoslashtirilgan akusherlik va ginekologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi direktor o'rinbosari t.f.n	2023-yil	
	13.3	Akusherlik va ginekologiya xizmati bo'yicha konsultant	Babajanova Shoxida Dadajanovna 03.12.1966-y.		Respublika Perinatal markaz bo'lim mudiri t.f.d.	2023-yil	
	13.4	Bolalar ginekologiya xizmati bo'yicha konsultant	Ibragimova Firuza Abduraxmanovna 17.09.1979-y.		Toshkent Pediatriya tibbiyot institutining bolalar ginekologiya bo'limi mudiri	2020-yil	
14	14.1	O'smirlar salomatligi xizmati bo'yicha bosh mutaxassis	Abdusamatova Barno Erkinovna 06.02.1973-y.		Bolalarni qo'llab-quvvatlash Jamoat fondi direktori o'rinbosari	2023-yil	

	14.2	Bolalar va o'smirlar gigiyenasi xizmati bo'yicha konsultant	Salomova Feruza Ibodullayevna 25.08.1967-y.		Toshkent tibbiyot akademiyasi tibbiy profilaktika va jamoat salomatligi fakulteti dekani t.f.n., professor	2023-yil	Onalik va bolalikni muhofaza qilish boshqarmasi
15	15.1	Dermatovenerologiya xizmati bo'yicha bosh mutaxassis	Inoyatov Avaz Shavkatovich 02.01.1974-y.		Respublika ixtisoslashtirilgan dermatovenerologiya va kosmetologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi direktor o'rinbosari. t.f.d., professor	2023-yil	Tibbiy yordamni tashkillashtirish departamenti
	15.2	Dermatovenerologiya xizmati bo'yicha konsultant	Raxmatov Akrom Baratovich 16.06.1953-y.		Dermatovenerologiya va tibbiy kosmetologiya RIIATM bo'lim boshlig'i, t.f.d, professor	2023-yil	
	15.3	Bolalar dermatovenerologiya bo'yicha konsultant	Djalilov Dilshod Sayfullayevich 28.09.1972-y.		Respublika ixtisoslashtirilgan dermatovenerologiya va tibbiy kosmetologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazining bo'lim boshlig'i, t.f.d, professor	2023-yil	Onalik va bolalikni muhofaza qilish boshqarmasi
16	16.1	Kardiologiya xizmati bo'yicha bosh mutaxassis	Fozilov Xurshid G'ayratovich 06.07.1978 y.		Respublika ixtisoslashtirilgan kardiologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi direktori, t.f.n.	2020-yil	Tibbiy yordamni tashkillashtirish departamenti
	16.2	Kardiologiya xizmati bo'yicha konsultant	Nizomov Ulug'bek Irgashevich 06.07.1987-y.		Respublika ixtisoslashtirilgan kardiologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi direktorining davolash ishlari bo'yicha o'rinbosari, PhD	2023-yil	Tibbiy yordamni tashkillashtirish departamenti






	16.3	Kardiologiya xizmati bo'yicha konsultant	Karimov Anvar Mirzoxidovich 21.03.1989-y.		Respublika ixtisoslashtirilgan kardiologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazining hududiy filiallar bilan davolash va metodik ishlar bo'yicha direktor o'rinbosari	2023-yil	Tibbiy yordamni tashkillashtirish departamenti
	16.4	Shoshilinch kardiologiya xizmati bo'yicha konsultant	Muxamedova Barno Farxadovna 21.10.1974-y.		Respublika shoshilinch tibbiy yordam ilmiy markazining bosh shifokori, t.f.d., bosh ilmiy xodim	2020-yil	
17	17.1	Bolalar kardiologiya xizmati bo'yicha bosh mutaxassis	Akbarxonov Bunyod Jamoliddinovich 31.12.1984-y.		"Akad. V.Voxidov" nomli Respublika ixtisoslashtirilgan xirurgiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazining bolalar kardiokirurgiya bo'limi kardiolog shifokori t.f.n.	2020-yil	Onalik va bolalikni muhofaza qilish boshqarmasi
18	18.1	Bolalar kardiokirurgiya xizmati bo'yicha bosh mutaxassis	Saidov Maqsud Arifovich 01.06.1986-y.		Bolalar milliy tibbiyot markazi direktori, t.f.n.	2023-yil	
	18.2	Bolalar kardiokirurgiya xizmati bo'yicha konsultant	Inagamov Sur'at Akramjonovich 17.11.1983-y.		Bolalar milliy tibbiyot markazi kardiokirurgi	2023-yil	Onalik va bolalikni muhofaza qilish boshqarmasi






19	19.1	Kardioxirurgiya xizmati bo'yicha bosh mutaxassis	Aliyev Sherzod Maxmudovich 02.09.1975-y.		“Akad. V.Voxidov” nomli Respublika ixtisoslashtirilgan xirurgiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazining yurak qo'shma nuqsonlari bo'limi rahbari, t.f.d., katta ilmiy xodim	2023-yil	Tibbiy yordamni tashkillashtirish departamenti
	19.2	Intervension kardiologiya xizmati bo'yicha konsultant	Salaxitdinov Shuxrat Najmitdinovich 10.11.1975-y.		Respublika shoshilinch tibbiy yordam ilmiy markazi Angiografiya bo'limi mudiri, t.f.n.	2020-yil	
20	20.1	Otolaringologiya xizmati bo'yicha bosh mutaxassis	Ergashev Ulug'bek Murodovich 03.12.1973-y.		Toshkent tibbiyot akademiyasining LOR kasalliklar kafedrasida dotsent, t.f.n.	2023-yil	
	20.2	Otolaringologiya xizmati bo'yicha konsultant	Ashurov Azimjon Mirzajonovich 06.09.1960-y.		Tibbiyot xodimlarining kasbiy malakasini rivojlantirish markazi LOR kasalliklar kafedrasida dotsenti, t.f.d.	2023-yil	
21	21.1	Bolalar otolaringologiya kasalliklari bo'yicha bosh mutaxassis	Karabayev Xurram Esonqulovich 05.01.1957-y.		Toshkent Pediatriya tibbiyot institutining LOR kasalliklari kafedrasida professori, t.f.d.	2006-yil	





	21.2	Bolalar otolaringologiya kasalliklari bo'yicha konsultant	Abdullayev Xabibullo Nusratullayevich 17.08.1973-y.		Toshkent Pediatriya tibbiyot institutining LOR kasalliklari kafedrasida dotsenti, t.f.d.	2007-yil	Onalik va bolalikni muhofaza qilish boshqarmasi
22	22.1	Nevrologiya xizmati bo'yicha bosh mutaxassis	Madjidova Yoqutxon Nabiyevna 14.01.1964-y.		Toshkent Pediatriya tibbiyot institutining nevrologiya, bolalar nevrologiya va tibbiy genetika kafedrasida mudiri, t.f.d., professor.	2018-yil	Tibbiy yordamni tashkillashtirish departamenti
	22.2	Nevrologiya xizmati bo'yicha konsultant	Azimova Nodira Mirvositovna 22.08.1975-y.		Toshkent Pediatriya tibbiyot institutining nevrologiya kafedrasida dotsenti, t.f.n.	2023-yil	
23	23.1	Bolalar nevrologiya xizmati bo'yicha bosh mutaxassis	Shomansurov Shoanvar Shomurodovich 07.10.1957-y.		Tibbiyot xodimlarining kasbiy malakasini rivojlantirish markazi bolalar nevrologiyasi Tibbiyot xodimlarining kasbiy malakasini rivojlantirish markazi bolalar nevrologiyasi kafedrasida professori, t.f.d.	2020-yil	Onalik va bolalikni muhofaza qilish boshqarmasi
	23.2	Bolalar nevrologiya xizmati bo'yicha konsultant	Saidazizova Shaxlo Xibziddinovna 12.02.1964-y.		Tibbiyot xodimlarining kasbiy malakasini rivojlantirish markazi "Bolalar asab kasalliklari" kafedrasining dotsenti	2023-yil	Onalik va bolalikni muhofaza qilish boshqarmasi
24	24.1	Neyroxirurgiya xizmati bo'yicha bosh mutaxassis	Asadullayev Ulug'bek Maqsudovich 21.01.1974-y.		Respublika ixtisoslashtirilgan neyroxirurgiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi bosh shifokori, t.f.d, katta ilmiy xodim	2023-yil	Tibbiy yordamni tashkillashtirish departamenti

	24.2	Neyroxirurgiya xizmati bo'yicha konsultant	Yuldashev Ravshan Muslimovich 19.07.1970-y.		Respublika ixtisoslashtirilgan neyroxirurgiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi direktor o'rinbosari, t.f.d., katta ilmiy xodim	2023-yil	Tibbiy yordamni tashkillashtirish departamenti
	24.3	Shoshilinch neyroxirurgiya xizmati bo'yicha konsultant	Maxkamov Maxkam Kozimovich 21.05.1985-y.		Respublika shoshilinch tibbiy yordam ilmiy markazi neyro-qon-tomir bo'limi mudiri, t.f.d	2023-yil	
25	25.1	Bolalar neyroxirurgiyasi xizmati bo'yicha bosh mutaxassis	Axmediyev Maxmud Mansurovich 13.04.1960-y.		Respublika ixtisoslashtirilgan neyroxirurgiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi bo'lim mudiri, t.f.d. professor	2003-yil	Onalik va bolalikni muhofaza qilish boshqarmasi
	25.2	Bolalar neyroxirurgiyasi xizmati bo'yicha konsultant	Kadirbekov Nodirbek Ravshanbekovich 25.05.1984-y.		Respublika ixtisoslashtirilgan neyroxirurgiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi bolalar neyroxirurgiya bo'limi neyroxirurgi	2023-yil	
26	26.1	Bolalar nefrologiyasi va gemodializ xizmati bo'yicha bosh mutaxassis	Akalayev Rostam Nurmuxamedovich 21.01.1950-y.		Tibbiyot xodimlarini kasbiy malakasini rivojlantirish markazi kafedra mudiri	2020-yil	

	26.2	Bolalar nefrologiyasi va gemodializ xizmati bo'yicha konsultant	Turgunova Dilorom Pulatovna 28.05.1973-y.		Tibbiyot xodimlarining kasbiy malakasini rivojlantirish markazi, nefrologiya, gemodializ, buyrak transplantatsiyasi kafedrasida assistenti	2023-yil	Onalik va bolalikni muhofaza qilish boshqarmasi
27	27.1	Nefrologiya xizmati bo'yicha bosh mutaxassis	Sabirov Maqsud Atabayevich 21.07.1975-y.		Respublika ixtisoslashtirilgan nefrologiya va buyrak transplantatsiyasi ilmiy-amaliy tibbiyot markazi direktorining ilmiy ishlari bo'yicha o'rinbosari, t.f.d., dotsent	2020-yil	Tibbiy yordamni tashkillashtirish departamenti
28	28.1	Gemodializ xizmati bo'yicha bosh mutaxassis	Xoliqov Alisher Yusupovich 27.05.1986-y.		Akademik Y.Turaqulov nomidagi respublika ixtisoslashtirilgan endokrinologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi gemodializ bo'limi mudiri, t.f.n.	2023-yil	
	28.2	Gemodializ xizmati bo'yicha konsultant	Azizov Sobit Qurbonovich 25.09.1960-y.		Respublika ixtisoslashtirilgan nefrologiya va buyrak transplantatsiyasi ilmiy-amaliy tibbiyot markazi 1-chi gemodializ bo'limi mudiri	2018-yil	Tibbiy yordamni tashkillashtirish departamenti
